

BUXORO SHAHRIDAGI QABRISTON NOMLARINING LINGVISTIK TAHLILI

Jo`rayeva Sevara Jamshid qizi

Buxoro davlat universiteti

Lingvistika (o'zbek tili) mutaxassisligi

1-bosqich magistranti

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 24.12.2025

Revised: 25.12.2025

Accepted: 26.12.2025

KALIT SO'ZLAR:

*nekronim, semantik,
etimologik, lingvistik,
qabriston, toponim,
toponimiya.*

Ko'plab qabriston nomlarini lingvistik tahlil qilish bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Jumladan, Buxoro shahridagi nekronimlar ham to'la yoritilmagan va ushbu maqolada Buxoro shahridagi qabriston nomlarini o'rganish orqali shahar toponimiyasining kam o'rganilgan, ammo mazmunan boy qatlamini ochib berish mumkin. Buxorodagi ko'plab nekronimlar asrlar davomida saqlangan bo'lib, ularning semantik va etimologik tahlili xalqning diniy qarashlari, qadriyatlar tizimi va tarixiy xotirasini tiklash uchun muhimdir

“Nekronimlar qabristonlar, mozorlar, mana shu tipga mansub bo'lgan muqaddas joylarning atoqli otlari hisoblanadi. Mohiyatan teonimlar antroponimlarga, antroponimik ko'lamga yaqin turadi, agnonimlar va nekronimlar esa jonsiz obyektlarning atoqli oti sifatida toponimiya, toponimik ko'lamga mansubdir.”⁶¹ Shahar nekronimlarini o'rganish orqali aholining din'iy qarashlari, urf-odatlarini to'g'risida ham ko'plab ma'lumotlarni yuzaga chiqarish mumkin.

⁶¹ Б.Йўлдошев “УЗБЕК ОНОМАСТИКАСИ МАСАЛАЛАРИ” танланма фанидан услубий қўлланма, Самарканд – 2011, 65-6

Toponim - joy nomi yoki joy nomi bilan bog'liq holda yaratilgan so'z hisoblanadi. Toponimlar tilning lug'at boyligiga kiradi. Biroq joy nomlari tilning boshqa leksik qatlamlaridan juda farq qiladi. Bu farq toponimlarning ko'p vaqtlardan buyon tilda mavjudligida, ko'p komponentlilikida, ya'ni har bir tilning ichki qonuniyatlariga ko'ra ko'p komponentlardan iborat bo'lishida, toponimlarning yasallishida o'zaro bog'liq otlar bo'lishida namoyon bo'ladi. Toponimlarni yaratishda shu tilga xos lingvistik vositalardan foydalaniladi. Lekin shu bilan birga, har bir tilda toponim yaratishning o'ziga xos vositalari mavjud, ya'ni ma'lum qo'shimchalar (affiksalar) va so'zlar toponimlarni yaratishga mo'ljallangan bo'ladi. Toponimika - bu geografik nomlar, ularning tarixi, kelib chiqishi, rivojlanishi va hozirgi holati haqidagi fandir. Toponimikani o'rganish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pgina joy nomlari juda qadimgi bo'lib hisoblanadi.⁶² Nekronimlar tilshunoslik, tarix, etnografiya va madaniyatshunoslik fanlari kesishmasida o'rganiladi. Chunki ular xalqning tarixiy xotirasi, diniy qarashlari, ijtimoiy tuzilishi va madaniy qadriyatlarini aks ettiradi.

Nekronimlar quyidagi turlarga bo'linadi:

Antroponimik nekronimlar - marhum shaxs nomi bilan atalgan qabr yoki ziyoratgohlar:

Xo'ja Ismat, Xo'ja Qutni, Imom Shamsiddin

Toponimik nekronimlar-dafn joylari bilan bog'liq hudud nomlari: Xalilobod, Yangibozor

Diniy-epitafiyaviy nekronimlar-qabr toshlarida uchraydigan diniy iboralar va nomlar orqali yuzaga kelgan birliklar.

Tarixiy nekronimlar-tarixiy voqealar yoki shaxslar bilan bog'liq dafn joylari nomlari:

Chilton, Xalifai Bag'dod.

Nekronimlar etimologik jihatdan quyidagicha tahlil qilinadi. "Chilton" ushbu qabriston ham Buxoro shahrida joylashgan bo'lib, toponimik jihatdan joy nomi, onomastik jihatdan esa nekronim hisoblanadi. Ushbu nom tarkibiy jihatdan chil+tan=chilton shaklida birikkan. "Chilton" so'zining dastlabki ma'nosi- "qirq kishi", "qirq avliyo" degani. Xalq e'tiqodiga ko'ra, "chiltonlar" – Allohga yaqin bo'lgan qirq nafar muqaddas zot sifatida tasavvur qilinadi. Ushbu qabriston nomidagi fonetik o'zgarish "tan" shaklidan, "ton" shakliga o'tgan, bu o'zgarish og'zaki nutqda tovushlarning moslashuvi natijasida yuzaga kelgan.

"Childuxtaron" nekronimi diniy-mifologik tasavvurlar asosida shakllangan, uning tarkibi uch leksemdan tashkil topgan. Chil+duxtar+on=childuxtaron, duxtar shakli o'zgarishsiz

⁶² <https://journal-web.uz/>

saqlangan, ba'zan og'zaki nutqda "duxtor" ko'rinishi uchraydi, -on qo'shimchasi jamlovchi ma'noni kuchaytiradi, so'z birikma holatidan to'liq onomastik birlikka o'zgargan.

"Tavsanakota" qabriston nomining tarkibi ikki leksemadan iborat. "tavsan", "kota". "Tavsan" so'zi turkey tillarda quyon, tovshan ma'nolarini bildiradi. Ushbu hayvon nomining qabriston nomi tarkibida kelishi ma'lum bir hududda quyonlarning ko'pligidan yoki ramziy tasavvurlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. "Kota" esa qo'rg'on, mustahkam joy, maskan ma'nolarini bildiradi. Aholi keyinchalik yashamagan ba'zi hududlar ya'ni ayrim toponimlar nekronimlashgan. Hudud nomi qabriston nomlariga aylangan. Demak, ushbu qabriston nomi etimologik jihatdan turkiy, dastlab toponim bo'lgan, keyinchalik nekronimlashgan.

Yuqoridagi tahlillar natijasida nekronimlarning bir qancha leksik-semantik, morfologik, fonetik tahlili orqali Buxoro shahridagi qabriston nomlarining ma'nosi chuqur o'rganildi. Nekronimlarni o'rganish faqatgina ilmiy qarashlarimizni kengaytiribgina qolmay, balki o'zimiz yashayotgan hududimiz haqidagi muhim ma'lumotlarni bilishimizga, qaysidir ma'noda kelajak avlod uchun saqlab qolishimizga yordam beradi. Biz yashoyotgan zaminning nomlanishi ostida ham chuqur ma'no yashirin. Qabriston nomlarini tahlil qilish nafaqat onomastik bilimni boyitadi, balki xalqning diniy-ma'naviy merosini ilmiy jihatdan o'rganishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. — Toshkent: Fan.
2. Б.Йўлдошев "ЎЗБЕК ОНОМАСТИКАСИ МАСАЛАЛАРИ" танланма фанидан услубий қўлланма, Самарканд – 2011, 65-б
3. Begmatov E. O'zbek onomastikasi masalalari. — Toshkent: Fan.
4. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk.
5. <https://journal-web.uz/>